



## O'ZBEKİSTON RESPUBLİKASI OLİY TA'LİM, FAN VA İNNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT  
O'ZBEK TİLİ VA ADABIYOTI UNIVERSİTETİ**

**O'zbek shevashunosligi markazi**

**"O'ZBEK FOLKLORI VA SHEVALARI TADQIQOTLARI:  
AMALIYOT, METODOLOGIYA, YANGICHA YONDASHUV"  
mavzusidagi  
xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya materiallari**

2024-yil 25-may

**Toshkent – 2024**

**“O‘zbek folklori va shevalari tadqiqotlari: amaliyot, metodologiya, yangicha yondashuv” mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya materiallari /  
Mas’ul muharrir: Sh.Sirojiddinov. – Toshkent: 2024. 619 bet.**

**Mas’ul muharrir:**

**Shuhrat Sirojiddinov**

*filologiya fanlari doktori, akademik*

**Tahrir hay’ati:**

**Jamoldinova O.R.**, pedagogika fanlari doktori, professor;

**Normamatov S.M.**, filologiya fanlari doktori (DSc), professor;

**Abdushukurov B.B.**, filologiya fanlari doktori, professor;

**Ashirboyev S.**, filologiya fanlari doktori, professor;

**Jo‘raqo‘ziyev N.I.**, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent;

**Tilavov A.X.**, filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

**Xidraliyeva Z.R.**, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;

**Alikulova H.Q.**, katta o‘qituvchi;

**Turdialihev A.**, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD);

**Qodirov U.A.**, o‘qituvchi.

Ushbu to‘plam Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat O‘zbek tili va adabiyoti universiteti folklorshunoslik va dialektologiya kafedrasi tomonidan “O‘zbek folklori va shevalari tadqiqotlari: maliyot, metodologiya, yangicha yondashuv” mavzusidagi 2024-yil 25-mayda o‘tkazilgan xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya materiallaridan tashkil topgan.

To‘plam materiallaridan filolog mutaxassislar, ilmiy tadqiqotchilar, magistratura va bakalavriat talabalari, shuningdek, keng o‘quvchilar ommasi foydalanishlari mumkin.

# BOLALAR NUTQINING HUDUDIY XOSLANISHI

## REGIONAL CUSTOMIZATION OF CHILDREN'S SPEECH

**Qurbanova Munavvara Abdujabborovna**

*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat  
o'zbek tili va adabiyoti universiteti prof. v.b.,  
filologiya fanlari doktori*

*Annotatsiya. Maqolada ontogenet davrida nominativ birliklarning bola lisoniy xotirasidan o'rinn olishida muloqot muhitining ahamiyati bayon etilgan. Ular nutqida hududiy va ijtimoiy omillar ta'sirida yuzaga keluvchi leksik dialektizmlarning semantik xususiyatlari ochib berilgan.*

**Kalit so'zlar:** ontogenet, bolalar nutqi, nominativ birlik, verbal muloqot, dialect.

**Abstract.** The article describes the importans of the communication environment in the acquistition of nominative units from the child's linguistic memori during ontogenesis. In their speech, the semantic features of lexical dialectics arising under the influence of regional and social factors are revealed.

**Key words:** ontogenesis, speech of children, nominative unit, verbal communication, dialect.

Ontogenet davri ona tili lug'at tizimiga xos imkoniyatlarni o'zlashtirishdagi asosiy bosqich sanaladi. Biroq lisoniy birliklar har doim ham kichik yoshdagi bolalar nutqida til me'yorlariga muvofiq holda ifodalanmaydi. Ayniqsa, bolaning 9 oydan 3 yoshgacha bo'lgan davrida ba'zi tushunchalarni ifodalovchi nominativ birliklar muloqot muhiti (ijtimoiy sharoitga ko'ra tilning mavjudlik shakllari va uslublaridan foydalanish) [Shveyser, Nikolskiy 1978: 91-93]ga bog'liq ravishda uning nutqida o'ziga xos tarzda aks etadi. Bolalar verbal muloqotining shakllanishini bevosita kuzatish jarayonida ular nutqida aks etgan bir qator leksik vositalar yuqorida fikrni tasdiqlaydi. Masalan, **umma** so'zi aksariyat bolalar nutqida "suv" ma'nosini anglatadi. Kichik yoshdagi bolalar nutqida bunday leksik birliklar ijtimoiy omillar ta'sirida paydo bo'ladi. Ya'ni bunda nafaqat bolaning ruhiy holati bilan bog'liq ichki omillar, balki tashqi ta'sir birliklari (vaziyat, holat, ijtimoiy muhit) [Mo'ninov 2000: 8-9] ham muhim ahamiyatga egadir.

Filogenez va ontogenet davrining dastlabki bosqichida bola lisoniy xotirasidan nominativ birliklarning o'rinn olishida u bilan muntazam ravishda muloqotga kirishgan kishilar nutqining ta'siri katta bo'ladi. Maktabgacha yoshdagi bolalar aksariyat leksik birliklarni kattalar nutqidan tayyor holda o'zlashtirib oladilar. Katta yoshli nutq egasi ayrim leksik birliklarni faqat bolalar bilan muloqotida ishlatadi. Bunday birliklar, asosan, onalar va enagalar nutqiga xos bo'lib, dialektlararo farqlanadi. Masalan, kattalar ta'sirida Toshkent shahar shevasida so'zlashuvchi bolalar tomonidan taqinchoqlar va zargarlik buyumlarining nomini ifodalash maqsadida **taqa** so'zi ishlatilsa, **ax** so'zi shokolad, konfet, shakar, qand singari ta'mi shirin bo'lgan qandolat mahsulotlariga nisbatan qo'llaniladi. Karnay-surnay ovozi Toshkent shahar shevasida so'zlashuvchi o'zbek bolalari nutqida **g'ata-g'ata-g'u** deb atalsa, Sirdaryo viloyatida yashovchi bolalar tomonidan ushbu tushunchaning ifodalishida **vota-vota** so'zi istifoda etiladi. Toshkent shahar shevasida so'zlashuvchi bolalar nutqida **qu-qu, papa** so'zlari qushlarga nisbatan ishlatiladi. Xorazm shevasida so'zlashuvchi bolalar **papa** so'zini chqaloqqa nisbatan qo'llaydilar. Andijon, Qo'qon kabi shevalarda so'zlashuvchi bolalar bu so'z orqali harorat (issiqlik)ni ifodalaydilar.

Toshkent shahar shevasida so‘zlashuvchi bolalar nutqida o‘ta issiqlikka nisbatan *jiz* sozi ishlataladi.

Ba‘zan bolalar nutqiga xos bunday tafovut bir lahja yoki muayyan sheva doirasida ham kuzatiladi: Toshkent shahrida yashovchi bolalar nutqida uchraydigan *naynum* so‘zi “qo‘sish”, “musiqa”, “raqs” kabi ma’nolarni aks ettiradi. Bu holat bola ongida bir semantik maydonga xos bo‘lgan sememalarni tutashtiruvchi ma’noning ohang tushunchasi asosida shakllanganligini aniqlashga yordam beradi. Toshkent shahar shevasida so‘zlashuvchi bolalar nutqiga xos bunday nutqiy birliklarni leksik-semantik xususiyatlari va ifodalanish usullariga ko‘ra quyidagicha tasniflash mumkin:

I. Narsa-buyum va shaxs nomini bildiruvchi so‘zlar: *ninni* – chaqaloq, *gol* – to‘p, *xaya* – kiyim, *popoq* – oyoq kiyim, *ayaya* – uyat, *vava* – yara (tananing shikastlangan qismi), *ashsha* – ovqat, *nanna* – non.

II. Ish-harakatning nomini bildiruvchi so‘zlar: *uppa* – ko‘tarmoq, *bum* – yiqilmoq, *atata* – urmoq, *xam* – yemoq.

III. Narsa-buyumning belgisini bildiruvchi so‘zlar: *opoq* – yaxshi, toza, *biji* – yomon, kir.

IV. Imitatsiya usuli asosida hosil bo‘lgan so‘zlar: *chiq-chiq* – soat, *bi-bip* – mashina.

Yuqoridagi kabi leksik birliklar dastlab bola bilan muloqotga kirishayotgan kattalar tomonidan fikrni tushunarli tarzda aks ettirish maqsadida qo‘llanadi. Bola esa bunday nutqiy ifodalarni kattalardan eshitib, qanday ma’no anglatishini xotirada saqlab qolishga harakat qiladi va muloqot vaziyatida ulardan keng foydalananadi.

Bu boradagi kuzatuv jarayonida to‘plangan dalillarni maktabgacha yoshdaggi o‘zbek bolalari nutqiga xos leksik dialektizmlar sifatida talqin qilish maqsadga muvofiqdir. Muayyan leksik vosita bolalar muloqotiga xos sheva unsuri sifatida ishlatsa ham, ma’lum vaqt davomida go‘dakning faol lug‘atidan o‘rin egallaydi. Mazkur leksik birlik yillar o‘tsa-da, til egalari lisoniy xotirasida o‘zgarmagan holatda saqlanib qolaveradi.

Demak, bolalar nutqida uchraydigan yuqoridagi kabi misollarning aksariyati hududiy va ijtimoiy belgilari asosida yuzaga keladi. Mashhur olim V.M.Jirmunskiy bu haqda shunday deb yozadi: “Har qanday tilda hududiy dialektologiya mavjud ekan, unda ijtimoiy dialektologiya ham bo‘lishi lozim” [Jirmunskiy 1969: 23].

Quyidagi mikromatnda kuzatiladigan tovush o‘zgarishlari bola shaxsi, uning yosh jihatni, gender xususiyati bilan birga, hududiy belgisi haqidagi ma’lumotlarni ham aks ettiradi:

*Sotiboldi ketdi. Bemorning oldidan jilmaslik va shu bilan birga tirikchilik uchun xonaki bir kasb qilishga majbur bo‘ldi... To‘rt yashar qizchasi qo‘liga ro‘molcha olib, onasining yuzini karaxt, nimjon, xira pashhalardan qo‘uriydi: ba‘zan qo‘lida ro‘molcha, mukka tushib uxbol qoladi. Sotiboldi qizchasini o‘lik yonidan olib, boshqa yoqqa yotqizayotganida qizcha uyg‘ondi va ko‘zini ochmasdan odatdagicha duo qildi:*

—*Xudoyo ayandi daydiga davo beygin* [A.Qahhor 2007: 43-44].

Matnda bola nutqida qo‘llangan dialektal elementlar uning ijtimoiy differensial jihatni (hududiy xoslanishi)ga ishora qiladi. Bolaning onasiga nisbatan shevaga xos *ayandi* so‘zshaklini ishlatalishi nutqning hududiy xoslanishini ko‘rsatadi. So‘zshaklining adabiy talaffuz me’yorlariga nomuvofiq tarzda aks ettirilishi esa ayni nutqiy ifodaga e’tiborni tortib, uning ta’sir kuchini oshirishga xizmat qiladi.

Xullas, nutqning shakllanish bosqichida narsa-hodisa va harakat-holatlarni aks ettiruvchi bir qator leksik birliklar muloqot muhitiga bog‘liq holda so‘zlovchi nutqida o‘ziga xos tarzda ifodalanadi. Ularning aksariyati hududiy va ijtimoiy belgilari ta’sirida yuzaga keladi va bolalar nutqining dialektal xususiyatlarini namoyon qiladi. Kichik yoshdaggi bolalar nutqiga xos leksik

dialektizmlarning funksional-semantik xususiyatlarini monografik aspektida tadqiq etish o‘zbek tilshunosligidagi dolzarb vazifalardan biridir.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Швейцер А.Д., Никольский Л.Б. Введение в социолингвистику. – М.: Высшая школа, 1978.
2. Мўминов С.М. Ўзбек мулоқот хулқининг ижтимоий-лисоний хусусиятлари. Филол. фан. док. ...дисс. автореф. – Тошкент, 2000.
3. Жирмунский В.М. Вопросы социальной лингвистики. – Л.: Наука, 1969.
4. Қаххор А. Бемор // Танланган асарлар. – Тошкент: F. Гулом, 2007.

## SHO‘RRABOD QISHLOG‘I SHEVASINING GRAMMATIK XUSUSIYATLARI (KELISHIKLAR MISOLIDA)

### GRAMMATICAL CHARACTERISTICS OF THE DIALECT OF SHORRABAD VILLAGE (EXAMPLE OF CONJUNCTIONS)

Rahmatov Mardon Mehmonovich  
filologiya fanlari doktori, dotsent,  
ToshDO ‘TAU  
[mardonrahmat@gmail.com](mailto:mardonrahmat@gmail.com)

*Annotation.* Maqolada o‘zbek tilining Qorako‘l tumani Sho‘rrabot qishlog‘i shevasining grammatick xususiyatlari kelishik kategoriyalari misolida o‘rganilgan. Shevaning o‘g‘uz shevalariga munosabati kelishik shakllari misolida ochib berilgan, ayrim o‘rinlarda sheva materiallari yondosh hudud shevalariga qiyoslangan. Mazkur grammatick shakllar tahlilida tasviriy, tavsifiy, taqqoslash, qiyosiy-tarixiy kabi bir qator lingvistik tahlil metodlaridan foydalangan.

*Kalit so‘zlar:* sheva, kelishik, o‘g‘uz, qarluq, affiks, grammatick shakl, grammatick xususiyat.

*Abstract.* The article examines the grammatical features of the Uzbek dialect of the village of Shurrabot in the Karakul district of the Bukhara region on the example of cases, which differ in some forms and meanings from other dialects of the Uzbek language. The article also reveals the relationship of this dialect to the Oguz dialects of the Uzbek language. In some places, the studied dialect material is compared with the dialects of the neighboring territory. A number of linguistic methods of analysis, such as descriptive, comparative, and comparative historical, were actively used in the analysis of these grammatical forms.

*Key words:* dialect, category of cases, Oghuz, Qarluq, affix, grammatical form, grammatical feature.

Qorako‘l areali Buxoro o‘zbek shevalari orasida o‘ziga xosligi bilan ajralib turadi. Mazkur hududda tarixan ko‘plab turkiy urug‘ va qabilalar yashab kelgan. Bugungi kunda ularning ko‘pchiliги urug‘ va joy nomlari sifatida saqlanib qolgan. Tadqiqotchilar olimlar ayni shu nomlarga qarab shu yerda yashayotgan mahalliy aholining – o‘zbeklarning etnik kelib chiqishini belgilovchi faktor sifatida qarashadi. Shunday toponimlarning ba’zilari qadimgi o‘g‘uz (Sayyot,

|          |  |            |
|----------|--|------------|
| <b>6</b> | <b>Бекжан Әбдуәлиұлы</b><br>Көне тұлғалы кісі есімдерінің тарихи-этимологиялық негіздері және шығу уәждері                                     | <b>92</b>  |
| <b>7</b> | <b>Садыгова Саялы</b><br>Особенности, присущие терминологическим словосочетаниям   | <b>99</b>  |
| <b>8</b> | <b>Ülkər Mirzəyeva</b><br>Qədim yunan mənbələrində işlənən Azərbaycan antroponimlərinin leksik - semantik təhlili                              | <b>104</b> |
| <b>9</b> | <b>Тотанов Нурлан Карсыбаевич,<br/>Дуйісова Алмагул Қонысбайқызы</b><br>Қазақ және өзбек халық мақал-мәтедеріндегі ұқсастық пен ортақ сарындар | <b>109</b> |

## 2-SHO'BA. O'ZBEK SHEVALARI TADQIQOTLARI

|           |  |            |
|-----------|--|------------|
| <b>1</b>  | <b>Sulton Normamatov</b><br>G‘ozi Olim Yunusovning o‘zbek tili siyosiy-huquqiy terminologiyasi shakllanishidagi o‘rni                  | <b>114</b> |
| <b>2</b>  | <b>Munavvara Qurbanova</b><br>Bolalar nutqining hududiy xoslanishi   | <b>119</b> |
| <b>3</b>  | <b>Mardon Rahmatov</b><br>Sho‘rrabod qishlog‘i shevasining grammatik xususiyatlari   | <b>121</b> |
| <b>4</b>  | <b>Ibrohim Darvishov</b><br>Namangan shevalardagi fonetik-fonologik xususiyatlar   | <b>129</b> |
| <b>5</b>  | <b>Nurmurod Chiniqulov</b><br>“Devonu lug‘atit turk” va o‘zbek shevalari   | <b>133</b> |
| <b>6</b>  | <b>Muqaddas Abdurahmonova</b><br>O‘zbek va turk tillaridagi leksik omonimlarning shevalarga munosabati                                 | <b>135</b> |
| <b>7</b>  | <b>Saodat Shinnazarova</b><br>H.Hamidovtiň qaraqalpaq tili tariyxı boyinsha miynetleri   | <b>138</b> |
| <b>8</b>  | <b>Alisher Ubaydullayev</b><br>G‘allaorol tumani Kashshof qishlog‘i shevasi leksikasi xususida   | <b>140</b> |
| <b>9</b>  | <b>Zaynidin Kurbonov</b><br><b>Muqaddas Bo‘riboyeva</b><br>Qipchoq lahjasidagi qarg‘ish va olqishlarga oid ayrim so‘zlar izohi         | <b>145</b> |
| <b>10</b> | <b>Zoxira Xidraliyeva</b><br>Iqon shevasi leksikasining semantik xususiyatlari   | <b>148</b> |
| <b>11</b> | <b>Iqbol O‘razova</b><br>“Layli va Majnun” dostonidagi ayrim leksemalarning hozirgi o‘zbek shevalari frazemalari tarkibida qo‘llanishi | <b>154</b> |
| <b>12</b> | <b>Abdumannon Hasanov</b><br>Binokorlik leksikasini sheva so‘zleri bilan boyitish haqida   | <b>158</b> |
| <b>13</b> | <b>Фарҳад Халилов</b><br>О творческом сотрудничестве русских и узбекских языковедов  | <b>161</b> |
| <b>14</b> | <b>Anvarbek Turdialiiev</b><br>Surxondaryo dialektal zonasida fokus nuqta masalasi   | <b>167</b> |
| <b>15</b> | <b>Elyor Alimardanov</b><br>Xorazm dialektal zonasidagi turkman shevalarida δ, θ tovushlarining qo‘llanilishiga doir                   | <b>170</b> |
| <b>16</b> | <b>Baurjan Sayfullayev</b><br>Til kontaktlari va uning badiiy adabiyotdagı xususiyatlari   | <b>173</b> |